

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI

“KELISHILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi



2022-yil “

“KELISHILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi



2022-yil “

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi



2022-yil “19” - *oktabr*

**“B” toifadagi avtotransport vositalari
haydovchilarini tayyorlash bo‘yicha**

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2022

O‘quv reja va dastur Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Avtomobil tayyorgarligi kafedrasini boshlig‘i, t.f.n., dotsent S.A. Kalauov, kafedra dotsenti, t.f.n., dotsent M.M. Fayziyev, kafedra o‘qituvchilari B.B. Polatov va F.E. Xoldarov, Avtomaktablar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi katta o‘qituvchi-metodisti A.F. Obidjonov, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini katta o‘qituvchilari tibbiyot fanlari nomzodi D.A. Nuraliyev va PhD S.U. Abdullayev, Tarbiyaviy-psixologik faoliyati kafedrasini dotsenti, PhD N.T. Turgunova, O‘zbekiston Respublikasi “TRANSKASB” korxonalar uyushmasi kadrlar tayyorlash bo‘yicha bosh mutaxassisi N.B. Zakirov, O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi direktori T.J. Yakubov, “Avtotest Report” MChJ bosh uslubchisi X.I. Xakimov, Toshkent avtomobil va yo‘llar texnikumi direktori o‘rinbosari, t.f.n. Sh.I. Erbekovlar tomonidan ishlab chiqildi.

O‘quv reja va dasturni ishlab chiqishda Toshkent avtomobil va yo‘llar texnikumi direktori, t.f.n., professor J.R. Kulmuxamedov, Ichki ishlar vazirligi JXD Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari M.A. Sherliyev, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti Bronetank va avtomobil texnikasi kafedrasini boshlig‘ining o‘rinbosari, PhD, dotsent D.A. Axmedov, “Avtotest Report” MChJ bo‘lim boshlig‘i N.N. Mamatov, Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi MO va QTM bo‘lim boshlig‘i S.Q. Turdibekov, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Avtomobil transporti kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bo‘lim boshlig‘i U.A. Bozorov, “Avtovoditel” XK haydovchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish o‘quv muassasasi direktori D.J. Norovlar uslubiy tavsiyalar bilan qatnashdilar.

Nashr uchun mas’ul: S.A. Kalauov – Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Avtomobil tayyorgarligi kafedrasini boshlig‘i, t.f.n., dotsent.

Taqrizchilar:

O.Ch. Saidov – Ichki ishlar vazirligi JXD Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i;

Sh.K. Xakimov – Toshkent davlat transport universiteti Transport intellektual tizimlari muhandisligi kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent.

“B” toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv dastur Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022-yil 10-iyundagi 6-son bayonnoma).

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ruxsatisiz chop etish taqiqlanadi.

Tushuntirish xati

“B” toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida” va “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–190-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi “Avtomototransport vositalari va shahar elektr transport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash hamda avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o'tkazish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 408-son va 2022-yil 20-iyuldagi “Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o'tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 393-son qarorlari asosida ishlab chiqildi.

“B” toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv dasturi avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi barcha ta'lim tashkilotlarida bajarilishi shart bo'lgan hujjat hisoblanadi va tayyorlashning mazmuni va natijalariga bo'lgan talablarni belgilaydi.

“B toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv dasturi avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi barcha ta'lim tashkilotlarida bajarilishi shart bo'lgan hujjat hisoblanadi va tayyorlashning mazmuni va natijalariga bo'lgan talablarni belgilaydi.

O'quv dasturini o'zlashtirish natijalari “B” toifadagi avtotransport vositalari haydovchilariga qo'yiladigan malakaviy talablardan kelib chiqqan holda tuzilgan.

O'quv dasturida uni o'zlashtirish jarayonida olinadigan bilim va ko'nikmalarga nisbatan talablar hamda amaliy tajriba va ko'nikmalarni olish uchun zarur bo'lgan bilimlar ko'rsatilgan.

“B” toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv dasturi uchta moduldan tashkil topgan. Birinchi va ikkinchi modul yakuni bo'yicha tinglovchi sinov topshiradi. Uchinchi moduldan so'ng umumiy kurs yakuni bo'yicha yakuniy nazorat topshiradi.

Yakuniy nazorat va sinovlarni tashkil qilish va o'tkazish avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi o'quv tashkilotlari yoki ularning muvofiqlashtiruvchi va yuqori tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan yo'riqnomalarda belgilanadi.

O'quv tashkilotida imtihonlarni qabul qilish uchun rahbar buyrug'i bilan rais va ikki kishidan iborat imtihon komissiyasi tuziladi. Qo'shimcha ravishda komissiya

a'zolari tarkibiga o'qituvchilar, instruktorlar, agar haydovchilar tashkilot uchun tayyorlanayotgan bo'lsa, shu tashkilotning vakili ham kiritilishi mumkin.

O'quv dasturining tuzilmasi va mazmuni o'quv rejasi va har bir o'quv fanini o'rganish uchun mavzular bo'yicha o'quv rejasi va dasturi ko'rinishida berilgan.

O'quv rejasida har bir o'quv fanini o'rganish uchun ajratilgan umumiy soatlar hamda bir o'quv fani uchun alohida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning mazmuni aks ettirilgan.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturining mazmuni "B" toifadagi avtotransport vositalarining haydovchisini tayyorlash bo'yicha o'zlashtirish natijalaridan kelib chiqib tayyorlangan.

Ta'lim jarayonini tashkil etishga bo'lgan talablar:

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha bir o'quv soatining davomiyligi – 40 daqiqa. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqa davom etadigan dars juftligi belgilanadi.

Avtotransport vositalarini boshqarishni o'rgatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda bir o'quv soatining davomiyligi – 60 daqiqa (bu vaqtga yakuniy xulosa chiqarish va hujjatlarni rasmiylashtirish vaqti kiradi).

Nazariy mashg'ulotlar jihozlangan o'quv xonalarida, ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari va texnik vositalardan foydalanib, ta'limning innovatsiya texnologiyalariga asoslangan holda olib boriladi.

"Yo'l transport hodisasida birinchi yordam" o'quv fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida ta'lim oluvchilar yo'l transport hodisasida jabrlanuvchilarga yordam (o'z-o'ziga yordam) ko'rsatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Avtotransport vositalarini boshqarishni o'rgatish, boshqarishni o'rgatish uchun mo'ljallangan mexanik transport vositalarida o'quv vaqtdan tashqari, o'rgatish jadvaliga asosan har bir ta'lim oluvchi bilan yakka tartibda haydovchi-yo'riqchi tomonidan o'tkaziladi.

Avtotransport vositalarini boshqarishni o'rgatish avtotrenajerda yoki o'quv avtomobilida, avtodromda hamda haqiqiy yo'l sharoitlaridan kelib chiqib, ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining (keyingi o'rinlarda YHXX) hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan o'quv yo'nalishlarida o'tkaziladi.

Hisob-kitoblar uchun har bir ta'lim oluvchi avtotransport vositalarini boshqarishni o'rganish bo'yicha 1 soatli mashg'ulot davomida o'rtacha 15 kilometr masofani bosib o'tishi inobatga olinadi.

Avtotransport vositalarini boshqarish bo'yicha ta'lim oluvchining egallagan ko'nikmalarini aniqlash maqsadida nazorat tekshiruvlarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Nazorat tekshiruvlari avtodromda o'tkaziladi. Nazorat tekshiruvlari jarayonida ma'lum mashqlarni bajarishi orqali ta'lim oluvchi egallagan ko'nikmalarining sifati baholanadi.

Yakuniy nazorat quyidagi o'quv fanlaridan o'tkaziladi:

1. Yo'l harakati qoidalari.
2. Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari.
3. Avtotransport vositalarini amaliy boshqarish bo'yicha.

Yakuniy nazorat o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilib, test shaklida o'tkaziladi.

Avtotransport vositalarini boshqarish bo'yicha amaliy sinovlar avtodromda o'tkaziladi.

Imtihonlar natijasi haqida imtihon komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan bayonnoma tuziladi, o'quv tashkilotining rahbari tomonidan imzolanadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

O'quv tashkilotini avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha ta'limni tugatib, imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga imtihon komissiyasi bayonnomasiga asosan ta'limni bitirganlik haqidagi yagona namunadagi guvohnoma (elektron shaklda bo'lishi ham mumkin) beriladi.

O'QUV REJA VA DASTURINING TUZILISHI VA MAZMUNI

“B” toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv reja

№	O‘quv fanlari	Soatlar		
		jami	shu jumladan	
			nazariy	amaliy
I modul fanlari				
1.	Yo‘l harakati sohasidagi qonunchilik asoslari	8	8	–
2.	Haydovchi faoliyatining psixofiziologik asoslari	10	10	–
3.	Haydovchi madaniyati	26	16	10
4.	Yo‘l-transport hodisasida birinchi yordam	10	4	6
5.	Sinov	2	2	–
	Modul bo‘yicha jami:	56	40	16
II modul fanlari				
6.	Yengil avtomobillarning tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish	10	10	–
7.	Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari	18	18	–
8.	Haydovchining huquqiy javobgarligi	8	8	–
	Sinov	2	2	–
	Modul bo‘yicha jami:	38	38	–
III modul fani				
9.	Yo‘l harakati qoidalari	110	76	34
	Modul bo‘yicha jami:	110	76	34
	Yakuniy nazorat	12	12	–
	Jami:	216	166	50
Avtotransport vositalarini amaliy boshqaruvi				
	Amaliy boshqaruv	69	–	69

* – avtotransport vositalarini amaliy boshqarishga ajratilgan mashg'ulotlar o'quv vaqtidan tashqari 69 soat hajmida o'tkaziladi.

I modul fanlari

“Yo‘l harakati sohasidagi qonunchilik asoslari” o‘quv fanidan o‘quv reja

№	Mavzular	Soatlar	
		jami	nazariy
1.	Yo‘l harakati sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari	2	2
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning yo‘l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari	6	6
	Jami:	8	8

“Yo‘l harakati sohasidagi qonunchilik asoslari” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

1-mavzu. Yo‘l harakati sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari.

2013-yil 10-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi 348-son qonunining mazmuni va mohiyati. Qonunga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar.

2021-yil 9-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi “Transport to‘g‘risida”gi 706-son qonunining mazmuni va mohiyati.

2021-yil 23-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi 730-son qonunining mazmuni va mohiyati.

2-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning yo‘l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari:

2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3127-son;

2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–190-son;

2022-yil 28-iyundagi “Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–298-son;

2022-yil 12-iyuldagi “2022–2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–316-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

2018-yil 31-maydagi “Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish

bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 408-son;

2018-yil 20-sentabrdagi "Yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 747-son;

2018-yil 1-dekabrdagi "Yo'l-patrul xizmati xodimlarining yo'l harakati qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to'g'risida"gi 975-son;

2021-yil 9-martdagi "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 125-son;

2021-yil 27-sentabrdagi "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 609-son;

2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-son;

2022-yil 4-iyuldagi "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 353-son;

2022-yil 8-iyuldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 377-son;

2022-yil 20-iyuldagi "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o'tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 393-son.

Sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

"Haydovchi faoliyatining psixofiziologik asoslari" **o'quv fanidan o'quv reja**

№	Mavzular	Soatlar	
		jami	nazariy
1.	Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda zamonaviy psixologik bilimlarning o'rni	2	2
2.	Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda psixik jarayonlarning o'rni	2	2
3.	Hissiy-irodaviy jarayonlar avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishning omili sifatida	2	2
4.	Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda individual-psixologik xususiyatlarning ahamiyati	2	2
5.	Haydovchilarning muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi	2	2
	Jami:	10	10

“Haydovchi faoliyatining psixofiziologik asoslari” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

1-mavzu. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda zamonaviy psixologik bilimlarning o‘rni.

Psixologiyaning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Qadimgi dunyo va o‘rta asr faylasuf va mutafakkirlarining psixologiya ilmi to‘g‘risidagi tushunchalari. Olimlarining psixologiya faniga qo‘shgan hissalari. Psixologiyaning fani, maqsadi va vazifalari hamda prinsiplari. Psixika va ong muammolari. Ongning psixologik tavsifi. Onglilik va ongsizlik tushunchalari. Psixologik qonuniyatlar va ularni aniqlash metodlari. Kuzatuv usuli (ichki, tashqi, o‘zi-o‘zini kuzatish). Eksperiment usuli (laboratoriyada tajriba o‘tkazish; tabiiy sharoitda tajriba o‘tkazish). So‘rovnoma usuli. Tarjimai hol usuli. Intervyu usuli. Sotsiometriya usuli. Test usuli. Modellash usullari. Faoliyat natijalarini tahlil qilish. Avtotransport vositasini boshqarish jarayonida psixologiyaning ahamiyati. Psixologiya fanining tarmoqlari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.

2-mavzu. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda psixik jarayonlarning o‘rni.

Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda psixik jarayonlarning o‘rni. Shaxsning psixik bilish jarayonlari haqida tushuncha (sezgi, idrok, diqqat, xotira, xayol, tafakkur) va ularning avtotransport vositasini boshqaruviga ta’siri. Sezgi va idrok avtotransport vositasini xavfsiz boshqarish omili sifatida. Diqqat va uning xususiyatlari (barqarorlik (konsentratsiya), diqqatni ko‘chirish, hajm va h.k.). Diqqat chalg‘ishining asosiy alomatlari va uni yuzaga kelish sabablari. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda xotira, xayol va tafakkur jarayonlarining tutgan o‘rni. Haydovchining ishonchliligini tashkil etuvchikasbiy mahorati, ma’naviy sifatlari, jismoniy holati. Mahoratni aniqlash. Haydovchining mahoratiga uning malakasi, haydovchilik staji va yoshining ta’siri. Ma’naviy sifatlari: intizomi, boshqa ishtirokchilarni hurmat qilishi, odob-ahloqi, o‘zini tuta bilishi va oldindan ko‘ra bilishi.

3-mavzu. Hissiy-irodaviy jarayonlar avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishning omili sifatida.

Shaxsning hissiy-irodaviy jarayonlari haqida tushuncha (kayfiyat, stress, affekt, frustratsiya, irodaviy sifatlari) va ularning avtotransport vositasini boshqaruviga ta’siri. Shaxsning hissiy holati (ta’sirchanlik, tavakkalchilikka moyillik, tajovuzkorlik va h.k.) va ularning avtotransport vositasini boshqarish jarayonida vujudga keladigan

xavfli vaziyatlarga ta'siri. Xavfni va tezlikni his qilish. Avtotransport vositasini boshqarish jarayonida yagona va aniq qaror qabul qilish ko'nikmasi. Avtotransport vositasini boshqarishga ta'sir etuvchi psixik holatlar: charchoq, bir xillik, emotsional bosim va ishchanlik.

Haydovchining faoliyatidagi stress va uning paydo bo'lishiga olib keladigan murakkab vaziyatlar. Stress vaqtida psixik holatni meyorlashtirish. Emotsional holatni jilovlashning usullari. O'z-o'zini anglash orqali emotsional holatni nazorat qilish. Charchoqning oldini olish. Avtotransport vositasini boshqarishda barqaror jismoniy holatni saqlab qolish usullari. Betoblik holatining, iste'mol qilingan alkogol va giyohvand moddalarning harakat xavfsizligiga ta'siri. Ishchanlik holatini tiklash usullari.

4-mavzu. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda individual-psixologik xususiyatlarning ahamiyati.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari haqida tushuncha (temperament, xarakter, qobiliyat, yo'nalganlik) va ularning avtotransport vositasini boshqaruviga ta'siri. Nerv tizimining xususiyatlari va temperament. Xarakter aksentusiyalari va uning avtotransport vositasini boshqarishda tutgan o'rni. Shaxsning qobiliyati va yo'nalganligi avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishning muhim omili sifatida. Mukammal haydovchida bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda haydovchining maqsadi va uning uchun muhim bo'lgan qadriyatlar. Xavfsiz boshqarishning muhimligi. Avtotransport vositasini boshqarishda haydovchining harakatlari va xatti-harakat operatsiyalari. Oddiy va murakkab vaziyatlar. Ruhiy keskinlik – haydovchining ishonchliligini ta'minlashda o'zini-o'zi rostlash vositasi. Haydovchi va yo'l xavfsizligini saqlash axloqi. Haydovchining ishonchliligi. Haydovchining ishchanligi. Toliqishi. Alkogoldan mast bo'lganda haydovchining harakatlari. Haydovchilarni dam olishi va mehnatini tashkil etishning vaqt meyorlari.

5-mavzu. Haydovchilarning muloqot va shaxslararo munosabatlari psixologiyasi.

Muloqotning kommunikativ sohasi. Muloqotning perseptiv tomoni. Muloqot olib borish darajalari. Muloqot turlari. Verbal va noverbal muloqot. Muloqot usullari. Axborot uzatish va ommaviy axborot jarayonlari. Axborot vositalari, ularning mohiyati va samaradorligi.

“Haydovchi madaniyati” o‘quv fanidan o‘quv reja

№	Mavzular	Soatlar		
		jami	shu jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Vatanparvarlik va halollik haydovchining umuminsoniy fazilati.	4	2	2
2.	Haydovchining madaniyati – yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning ahloqiy asosi	4	2	2
3.	Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda haydovchining huquqiy madaniyati	4	2	2
4.	Haydovchilik kasbiga qo‘yiladigan talablar va ularning mohiyati	2	2	–
5.	Haydovchining kasbiy muvofiqligi va mahorati	2	2	–
6.	Yo‘l-transport xodisasini oldini olishda haydovchining madaniyati	2	2	–
7.	Haydovchining yo‘l harakati qatnashchilari bilan so‘zlashuv madaniyati	4	2	2
8.	Haydovchining yo‘l harakati qatnashchilari bilan munosabatlarida nizolarni oldini olish va murosaga kelishishning o‘rni	4	2	2
Jami:		26	16	10

“Haydovchi madaniyati” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

1-mavzu. Vatanparvarlik va halollik haydovchining umuminsoniy fazilati.

Vatan, adolat, sadoqat, iftixor tushunchalari. Haydovchilarda vatanparvarlik fazilatining namoyon bo‘lishi. Vatanparvarlik va halollik – haydovchining umuminsoniy fazilati. Haydovchilarning faoliyatida ma’naviy fazilatlar: o‘z kasbiga sadoqat, xizmat burchiga mas’uliyat, qonunga hurmat va itoatkorlik, mardlik va jasurlikning o‘rni. Haydovchilarning ma’naviy fazilatlariga zid illatlar: mas’uliyatsizlik, ayyorlik, firibgarlik, befarqlik va loqaydlik hamda ularni bartaraf etish yo‘llari.

2-mavzu. Haydovchining madaniyati – yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning ahloqiy asosidir.

Haydovchi odob-axloqi tushunchasi. Uning asosiy talablari: xizmat vazifasiga vijdonan yondashish, yo‘l harakati qatnashchilariga samimiy munosabati, intizomga rioya qilish, kattalarni, ayollarni hurmatlash va boshqalar. Haydovchilarlarining umuminsoniy axloq prinsiplari: insonparvarlik, jamoatchilik, adolat qonuniylik

tamoyillariga qat'iy rioya qilishi. Haydovchilarning axloqiy madaniyatida milliy axloqiy qadriyatlarning namoyon bo'lishi. Haydovchilarning etiketi: rostgo'ylik, fidoiylilik, hushyorlik, yordamga tayyor turishi, boshqa haydovchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi. Haydovchilarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan munosabatlarda xushfe'llik, qonuniy talablarga itoat.

3-mavzu. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda haydovchining huquqiy madaniyati.

Huquqiy madaniyat tushunchasi. Haydovchilarning Konstitutsiya va qonunlarni bilishi, yangi qonunlardan xabardorligi. Haydovchilarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 5618-son farmonining ahamiyati. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda haydovchining huquqiy madaniyati. Huquqiy madaniyat – huquq va uni amalga oshirish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat manfaatlari va hoxish-irodalariga mos faoliyati.

4-mavzu. Haydovchilik kasbiga qo'yiladigan talablar va ularning mohiyati.

Haydovchilik kasbiga qodirlik va munosiblik. Haydovchilik faoliyatining psixofiziologik xususiyatlari. Haydovchilik kasbika loyiqsizlik. Haydovchilik sohasida ekstravertlik va introvertlik tushunchasi. Haydovchilik kasbiga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablar. Transport vositalari haydovchilarini tayyorlashda ijtimoiy, tibbiy va psixofiziologik tanlovning ahamiyati.

5-mavzu. Haydovchining kasbiy muvofiqligi va mahorati.

Professional kasbiy yaroqlilik va mahorat: kasbiy yaroqlilik, kasbiy mahorat, sensor qobiliyatlar, fikrlash yoki aqliy qobiliyatlar, harakatlanish ko'nikmalari.

Shaxsning haydovchilik kasbiga muvofiqligi. Haydovchilik kasbi bilan shug'ullanishga moslik. Kasbiy mahorat. Yosh haydovchilardagi mahoratsizlik sabablari va omillari. Transport vositasini boshqarishda haydovchilik ko'nikmalarini avtomatlashtirish. Haydovchilikka tayyorlashda hissiy va ongli qobiliyatning ahamiyati.

6-mavzu. Yo'l-transport xodisasini oldini olishda haydovchining madaniyati.

Transport vositasini havfsiz boshqarishda haydovchining to'g'ri harakatlari. Transport vositasini havfsiz boshqarishda madaniyat, bilim va mahorat ko'rsatkichlarining ahamiyati. Transport vositasini havfsiz boshqarishda "har doim yo'l berish" tushunchasining ahamiyati. Yo'l harakatining "bezori" yoki "surbet" haydovchisi bilan boshqa haydovchilarning o'zaro munosabati. Piyodaga nisbatan

haydovchilar madaniyatining ko‘rinishi. Transport vositasini boshqarishda haydovchining to‘g‘ri fikr yuritishi. Transport vositasini boshqarishda harakatlarni to‘g‘ri amalga oshirilishi.

7-mavzu. Haydovchining yo‘l harakati qatnashchilari bilan so‘zlashuv madaniyati.

So‘zlashuv madaniyati tushunchasi. Haydovchining so‘zlashuv madaniyati shaxs ma’naviyatining uzviy bir bo‘lagi sifatida. Haydovchilarni harakat qatnashchilari bilan so‘zlashuv madaniyatiga qo‘yiladigan talablar: aniqlik, ziddiyatsizlik, izchillik, ketma-ketlik, asoslanganlik, qisqa va lo‘nda, tushunarli bo‘lishi, talaffuz. So‘zlashuvda haydovchilarda professionalizmining aks etishi. Kasbga oid atamalardan foydalanish. Haydovchilarni so‘zlashuvi asosan avtotransport vositasini boshqarishga halaqit bermasligi. Haydovchilarning davlat tilini biliishi va so‘z zahiralari oshirish yo‘llari. Haydovchilar faoliyatida so‘zlashuv madaniyatining ahamiyati.

8-mavzu. Haydovchining yo‘l harakati qatnashchilari bilan munosabatida nizolarni oldini olish va murosaga kelishishning o‘rni.

Haydovchilarning fuqarolarga samimiy, do‘stona munosabati. Haydovchilarning fuqarolarga munosabatlarida milliy qadriyatlarga rioya qilishi. Konsensus, kompromiss, konflikt tushunchalari. Haydovchilarni ish faoliyatidagi nizoli vaziyat va ularni oldini olish usullari. Haydovchi va yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda kompromissning o‘rni va ahamiyati.

**“Yo‘l-transport hodisasida birinchi yordam”
o‘quv fanidan o‘quv reja**

№	Mavzular	Soatlar		
		jami	shu jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Yo‘l-transport hodisalari oqibatida jarohatlanishlarning umumiy tasnifi va birinchi yordam ko‘rsatish xususiyatlari. YTHda jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslari, odam anatomiyasi va fiziologiyasi.	2	2	–
2.	Qon oqishi va uni vaqtinchalik to‘xtatish uslublari, bosh va umurtqa pog‘onasining jarohatlari. Tayanch-harakat a‘zolarining shikastlanishi. Termik shikastlanishlar.	2	2	–

3.	Desmurgiya. Bintli bog‘lamlarning turlari va ularni qo‘yish qoidalari, transport immobilizatsiyasi. Shina qo‘yish qoidalari.	2	–	2
4.	Terminal holatlar. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma va zaharlanish hollarida yordam ko‘rsatish, ekstremal holatlarda yordam ko‘rsatish (klinik o‘lim). Yurak-o‘pka reanimatsiyasini o‘tkazish	2	–	2
5.	YTHda shikastlanganni davolash muassasasiga transportirovka qilishning o‘ziga xosligi. Tibbiy qutichadan foydalanish qoidalari	2	–	2
	Jami	10	4	6

“Yo‘l-transport hodisasida birinchi yordam” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

1-mavzu. Yo‘l-transport hodisalari oqibatida jarohatlanishlarning umumiy tasnifi va birinchi yordam ko‘rsatish xususiyatlari. YTHda jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslari. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi.

Yo‘l-transport hodisasining turiga qarab jarohatlanish tasnifi. Avtomobil salonidan tashqarida va avtomobil salonida jarohatlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari. YTH oqibatida halok bo‘lganlar uchun haydovchi, tibbiyot xodimi, qutqaruv va boshqa xizmat xodimlarining javobgarligi.

Odam organizmining tuzilishi va ishlashi to‘g‘risida asosiy tushunchalar. Yurak-qon tomirlari, nafas olish, asab va tayanch-harakat tizimlari.

2-mavzu. Qon oqishi va uni vaqtinchalik to‘xtatish uslublari, bosh va umurtqa pog‘onasining jarohatlari. Tayanch-harakat a‘zolarining shikastlanishi. Termik shikastlanishlar.

Qon ketishi haqida tushuncha. Tashqi va ichki qon ketish. Arterial, venoz, kapillyar va aralash qon ketish turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari: arteriyani barmoq bilan bosish, jarohatga tomon qo‘yish, qo‘l-oyoqni maksimal bukish, jgut qo‘yish. Bo‘shliqlarga, organ va to‘qimalar ichiga ichki qon ketishi. O‘tkir ichki qon ketishning tashxisi.

Bosh yumshoq to‘qimalarining yopiq va ochiq (jarohatlar) shikastlanishlari. Kalla suyagining (gumbazini yoki asosini) shikastlanishi. Bosh miyaning chayqalishi, lat yeyishi va ezilishi. Yuzning shikastlanishi – lat yeyishi, jarohatlanishi. Pastki jag‘ suyagining (bo‘g‘imdan) chiqishi. Yuz va jag‘ suyaklarining sinishi. Umurtqa pog‘onasining shikastlanishi. Transport immobilizatsiyasi. Lat yeyish va pay cho‘zilishi. O‘mrov, yelka, tirsak, qo‘l panjasi, son, tizza, to‘piq va oyoq panjalari

bo'g'imlarining travmatik chiqishlari. Tayanch-harakat a'zolari suyaklarining sinishlari. Sinishlar tasnifi: ochiq va yopiq. Qo'l va oyoq suyaklarining sinishi, qovurg'alarining sinishi. Termik shikastlanishlar turlari.

3-mavzu. Desmurgiya. Bintlil bog'lamlarning turlari va ularni qo'yish qoidalari. Transport immobilizatsiyasi. Shina qo'yish qoidalari.

Desmurgiya. Bog'lamlar tasnifi. Bog'lovchi materiallar. Leykoplastirli, yelimli, ro'molli, bintli, to'rli elastik bog'lamlarni qo'yish qoidalari.

Standart va qo'l ostida bo'lgan buyumlar bilan transport immobilizatsiyasini tashkil etish. Jarohatlangan shaxsga shinalar qo'yish qoidalari.

4-mavzu. Terminal holatlar. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma va zaharlanish hollarida yordam ko'rsatish. Ekstremal holatlarda yordam ko'rsatish (klinik o'lim). Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish.

Terminal holatlarni aniqlash va ularning tasnifi. Shokning alomat va belgilari. Shokka qarshi hatti-harakatlarning majmuasi. O'tkir nafas yetishmovchiligi va bo'g'ilishning sabablari, birinchi yordam ko'rsatish majmui va uning samaradorlik darajasi. Hushni yo'qotish, kollaps, koma holatlarining kelib chiqish sabablari, tasnifi va birinchi yordam ko'rsatish. Zaharlanishlarda birinchi yordam.

Jabrlanuvchi holatining og'irligini baholash va yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish bo'yicha ko'rsatkichlarni aniqlash. Mustaqil nafas olish funksiyasini tiklash. Og'iz bo'shlig'ini tozalash, yuqori nafas olish yo'llaridan havo o'tishini ta'minlash. "Og'izdan-og'izga", "Og'izdan-burunga" usullari orqali sun'iy nafas berishni o'tkazish. Bir yoki ikki qutqaruvchi yordamida yurakni tashqi massaj qilish usullari. Reanimatsiya harakatlari natijasining nazorati. Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazishdagi hatolar. Bolalar va kattalarda yurak-o'pka reanimatsiyasi o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.

5-mavzu. YTHda shikastlanganni davolash muassasasiga transportirovka qilishning o'ziga xosligi. Tibbiy qutichadan foydalanish qoidalari.

Shikastlanganlarni tashish va transportirovka qilish: Bemor ahvolidagi og'irlik darajasi va shikastlanish turiga qarab transportda tashish usulini tanlash. Shikastlanganlarni transport vositasida, zambilda, kamarlarda va qo'lda tashish. Transportda tashish vaqtida bemorning holati. Bosh va umurtqa pog'onasini shikastlanishida, qovurg'alari va tos suyaklari singan hamda oyoqlari shikastlangan bemorlarning transportirovkasi.

Tibbiy qutichaning tarkibi. Tibbiy quticha tarkibidagi vositalardan foydalanish.

“Yo‘l-transport hodisasida birinchi yordam” fanining o‘quv rejasiga ilova.

Ta’lim oluvchi quyidagilarni bilishi va bajarishni bilishi kerak:

1. Pulsni uyqu, bilak va sondagi arteriyalar yordamida aniqlash usullarini.
2. Ko‘z qorachig‘ining holatini va ko‘z qorachig‘ining nurga nisbatan reaksiyasini aniqlashni.
3. Qon oqishini barmoq bilan bosib, siqib bog‘lovchi bog‘lamni qo‘yib, tirsak va tizza bo‘g‘inlarini maksimal bukib to‘xtatish usullarini.
4. Jgut va bog‘lovchi-jgut qo‘yish usullarini. Jgutni belgilangan joyga qo‘yishni.
5. Arteriyani (yelka, uyqu, o‘mrovosti, qo‘ltiqosti, sondagi kerakli nuqtada) barmoq bilan vaqtincha bosib, qon oqishini to‘xtatishni.
6. Burun ichiga tampon tiqishni.
7. Bintli bog‘lamlarni qo‘yish usullari.
8. Tananing turli a‘zolariga har xildagi bintli bog‘lamlarni qo‘yishni.
9. Pnevmotoraksda germetik bog‘lam qo‘yishni.
10. Shaxsiy bog‘lovchi paketni qo‘yish texnikasini.
11. Tayanch-harakat a‘zolarini singanda standart shinalar hamda qo‘l ostidagi vositalar yordamida transport immobilizatsiyasini qo‘yish texnikasini.
12. Og‘iz bo‘shlig‘ini tozalash texnikasi va yuqori nafas olish yo‘llarining o‘tkazish qobiliyatini tiklashni.
13. O‘pkalarni sun‘iy shamollatish: “og‘izdan-og‘izga”, “og‘izdan-burunga” va havo o‘tkazgich moslamasidan foydalanish usullarini.
14. Bir yoki ikkita qutqaruvchi yordamida yurakni yopiq massaj qilish texnikasini.
15. Turli xil shikastlanishda zambilga yotqizish texnikasini va tashish qoidalarini.
16. Shikastlanganlarni tasmalar yordamida tashish texnikasini.
17. Bir yoki ikkita qutqaruvchi bo‘lganida shikastlanganlarni qo‘l yordamida tashishni.
18. Qo‘l ostidagi vositalar yordamida shikastlanganlarni tashish texnikasini.
19. YTH oqibatida shikastlanganning avtomobil salonidan olib chiqish va kiyimlarini yechish tartibini.
20. Tibbiy quticha tarkibidagi dori vositalaridan foydalanish qoidalari.

I modul fanlari bo‘yicha sinov. I modul fanlari bo‘yicha o‘quv tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan test savollari shaklidagi sinovni o‘tkazish bo‘yicha metodik materiallar asosida o‘tkaziladi.

II modul fanlari

“Yengil avtomobillarning tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish” o‘quv fanidan o‘quv reja

№	Bo‘limlar va mavzular	Soatlar	
		jami	nazariy
I bo‘lim. Yengil avtomobillarning tuzilishi			
1.	Avtotransport vositalarining umumiy tuzilishi	2	2
2.	Elektromobillarning tuzilishi va ishlashi	2	2
3.	Gaz ballonli avtotransport vositalarning tuzilishi va ishlashi	2	2
	Bo‘lim bo‘yicha jami:	6	6
II bo‘lim. Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish			
4.	Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish	2	2
5.	Yengil avtomobillarda amalda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari	2	2
	Bo‘lim bo‘yicha jami:	4	4
	Jami:	10	10

“Yengil avtomobillarning tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

I bo‘lim. Yengil avtomobillarning tuzilishi

1-mavzu. Avtotransport vositalarining umumiy tuzilishi.

Yengil avtomobillarning vazifasi va tasnifi. Umumiy tuzilishi. Asosiy agregat, uzellar, mexanizmlar va tizimlarning vazifasi, joylashishi va o‘zaro bog‘lanishi. Avtotransport vositalarining qisqacha texnik tavsiflari. Zamonaviy avtomobillar tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari.

2-mavzu. Elektromobillarning umumiy tuzilishi va ishlashi.

Elektromobillarning umumiy tuzilishi va ishlashi. Elektr dvigateli bilan jihozlangan avtomobillar va ichki yonuv dvigatelli avtomobillarning farqli jihatlari.

3-mavzu. Gaz ballonli avtomobillarni ta'minlash tizimlarining umumiy tuzilishi va ishlashi.

Suyultirilgan gazballonli avtomobillarni ta'minlash tizimining umumiy tuzilishi va ishlashi. Siqilgan gazballonli avtomobillarni ta'minlash tizimining umumiy tuzilishi va ishlashi.

II bo'lim. Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish

4-mavzu. Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish.

Benzinda, dizel yonilg'isida va gaz yonilg'isida ishlovchi avtomobillarga TXK turlari va ularda bajariladigan ishlar.

Foydalaniladigan materiallar va ularning vazifasi.

Shinalar va akkumulyator batareyalarini muddatdan oldin ishdan chiqishi va ekspluatatsion materiallarining jadal sarfini keltirib chiqaruvchi sabablar. Shinalar va akkumulyator batareyalarining ishlatish muddatlari.

Avtomobillarda yonilg'i sarfining meyorlari. Havo harorati past bo'lganda, tog'lik hududlarda va og'ir yo'l sharoitlarida yonilg'i sarfining miqdorlari. Motor va transmission moylar, yopishqoq surkovlar va maxsus suyuqliklar sarfining meyorlari. Shina va akkumulyator batareyalarining ishlatish muddatlarini uzaytirish, yonilg'i-moylash va ekspluatatsion materiallar sarfini tejash usullari.

5-mavzu. Avtotransport vositalarida amalda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari.

Dvigatel nosozliklari va ularni bartaraf etish usullari. Rul boshqamasidagi nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari. Tormoz tizimining nosozliklari va ularni bartaraf etish usullari. Elektr ta'minoti tizimidagi nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari. Yurish qismi nosozliklari va ularni bartaraf etish usullari.

“Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari” o'quv fanidan o'quv reja

№	Mavzular	Soatlar	
		jami	nazariy
1.	Yo'llarda xavfsiz harakatlanishda “Avtomobil – Haydovchi – Yo'l – Piyoda – Muhit” tizimining ahamiyati	2	2
2.	Yo'l sharoitlari va zaruriyatdan kelib chiqib, yo'lga chiqishni rejalashtirish	2	2
3.	Avtotransport vositasini boshqaruvida kuzatishni tashkillashtirish, qabul qilinayotgan axborotning	2	2

	xavflilik darajasini baholash		
4.	Avtotransport vositasini boshqarish texnikasi. Avtotransport vositasini boshqarishda haydovchining harakatlari	2	2
5.	Avtotransport vositalarining foydalanish ko'rsatkichlari.	2	2
6.	Aktiv va passiv xavfsizlik tizimlari	2	2
7.	Avtotransport vositasini chorrahalarda, to'xtab turish joylarida va piyodalar o'tish joyida boshqarish.	2	2
8.	Avtotransport vositasini transport oqimida boshqarish va qorong'ida ko'rish yetarlicha bo'lmagan sharoitlarda boshqarish	2	2
9.	Murakkab vaziyatlarda haydovchining harakatlari. Yo'l-transport hodisalari	2	2
	Jami:	18	18

“Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

1-mavzu. Yo'llarda havfsiz harakatlanishda “Avtomobil – Haydovchi – Yo'l – Piyoda – Muhit” tizimining ahamiyati.

Yo'llarda havfsiz harakatni tashkil etishning asosiy vazifalari. Avtomobil yo'llarida havfsiz harakatlanishda “Avtomobil – Haydovchi – Yo'l – Piyoda – Muhit” tizimini mexanik, biologik va biomenik ko'rsatkichlar bo'yicha toifalanishi.

2-mavzu. Yo'l sharoitlari va zaruriyatdan kelib chiqib, yo'lga chiqishni rejalashtirish.

Yo'lga chiqish zaruratiyaning avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishga ta'siri. Yo'l harakatining sharoitidan kelib chiqqan holda yo'lga chiqish zaruriyatini baholash: kunduzi yoki qorong'i paytda, yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida, harakatning tig'iz paytida, qatnov qismi qoplamasining holatidan kelib chiqib va h.k. Yo'nalishni tanlash va yo'lga chiqish vaqtini aniqlash.

Yo'l sharoitining harakat xavfsizligiga ta'siri. Avtomobil yo'llarining turlari va tasnifi. Yo'llarning tuzilishi. Yo'l xavfsizligining asosiy elementlari. Avtoshinalarni yo'l bilan ilashish koeffitsiyenti to'g'risida tushuncha. Qoplamaning holati va ob-havo sharoitiga qarab ilashish koeffitsiyentining o'zgarishi.

3-mavzu. Avtotransport vositasini boshqaruvida kuzatishni tashkillashtirish, qabul qilinayotgan axborotning xavflilik darajasini baholash.

Oldindagi masofa ko'rinishining uchta asosiy zonasi: uzoq (30-120 soniya), o'rta (12-15 soniya) va yaqin (4-6 soniya). Yo'ldagi sharoitning o'ziga xosligini

oldindan bilish uchun ko‘rinishning uzoq masofasidan, xatarning xavflilik darajasini bilish uchun o‘rta masofasidan va xavfdan himoyalaniшни boshlash uchun yaqin masofasidan foydalanish. Vaziyatni kuzatishni aholi punktlarida va aholi punktlaridan tashqarida o‘ziga xosligi. Yo‘lni ko‘rinmaydigan tomonini, tormozlanayotib, burilishdan, qayta tizilishdan va quvib o‘tishdan oldin kuzatish ko‘nikmalari. Yon tomondagi vaziyatni yon ko‘zgular orqali nazorat qilish. Nazorat-o‘lchov asboblari kuzatib borish ko‘nikmalari shakllantirish. Chorrahalaridan o‘tayotganda kesishayotgan yoki tutashayotgan yo‘llarni kuzatib borish ketma-ketligi.

Oddiy va murakkab vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish bo‘yicha misollar. Yo‘l vaziyatlarini tahlil qilish.

4-mavzu. Avtotransport vositasini boshqarish texnikasi. Avtotransport vositasini boshqarishda haydovchining harakatlari.

Haydovchining avtotransport vositasiga o‘tirishi. Haydovchining optimal ish holatini ta‘minlash uchun o‘rindiqni rostlash va boshqaruv organlaridan foydalanish qulayligini tekshirish.

Yo‘lovchilarni tashishda xavfsizlik choralari ko‘rilganligini nazorat qilish.

Boshqaruv organlari, asboblari va indikatorlarning vazifasi. Ishoralar berish, oldi peshoynani yuvish va quritish, oldi va orqa peshoynalarni isitish, falokat ishorasini ishga tushirish. Nazorat-kuzatuv asboblari falokatli vaziyatlarni ko‘rsatganda haydovchining harakati.

Boshqarish organlaridan foydalanish usullari. Rul chambaragi bilan ishlash texnikasi.

Dvigatelni ishga tushirish. Dvigatelni qizdirish. Harakatni boshlash va uzatmalarni ketma-ket almashtirish bilan tezlikni ravon oshirish. Har bir uzatma uchun optimal tezlikni tanlash. Dvigatel bilan tormozlash.

Oddiy vaziyatlarda ravon sekinlashish va murakkab vaziyatlarda tormoz kuchidan maksimal foydalanib, sekinlashish. Qoplamasi sirpanchiq yo‘llarda tormozlash.

Tik nishablik va tik balandliklarda, harakatlanish uchun qiyin bo‘lgan yo‘llarda va qoplamasi sirpanchiq uchastkalarda harakatni boshlash. Sirpanchiqda g‘ildiraklarni jilmay aylanishini oldini olib, harakatni boshlash.

G‘ildiraklarni sirpanib tormozlanishiga qarshi (ABS) tizimi bilan jihozlangan avtotransport vositalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Avtomat uzatmalar qutisi (AUQ) bilan jihozlangan avtotransport vositalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. AUQning boshqaruv organlaridan foydalanish. Tik nishablik va balandliklarda, yo‘lning harakatlanish uchun qiyin va sirpanchiq uchastkalarida AUQning ish rejimini tanlash.

Avtotransport vositasini boshqarishda haydovchining harakatlari.

Tormozlanish va to‘xtash yo‘lini baholash. Turli xil tezliklarda avtotransport vositasining atrofida xavfsiz makonni shakllantirish.

Haydovchining reaksiya vaqti. Tormoz yuritmasining ish vaqti. Xavfsiz oraliq masofa (soniya va metrlarda). Xavfsiz masofani nazorat qilish usullari. Turli sharoit va tezliklarda tormozlash va to'xtash uchun yetarli vaqt va masofa. Xavfsiz yon oraliq masofa. Harakatning turli sharoitlarida (serqatnovlik, oqimning tezligi, yo'lining holati va ob-havo sharoitlari) va to'xtashda avtotransport vositasining yon tevaragida xavfsiz makonni shakllantirish. Murakkab yo'l vaziyatlarida to'g'ri va aniq qaror qabul qila olish. Xavflilik darajasini aniqlash.

5-mavzu. Avtotransport vositalarining foydalanish ko'rsatkichlari.

Transport vositasi ishini samarali va xavfsiz bajarish bo'yicha mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar: gabarit o'lchamlari, vazn parametrlari, yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchilar tashish imkoniyati), tezlik va tormoz xususiyatlari, ag'darilishga, surilib ketishga va yon tomonga sirpanishga qarshi turg'unligi, yoqilg'i tejamkorligi, har xil sharoitlarda foydalanishga moslashish, ishonchlilik.

Avtomobilga ta'sir etuvchi kuchlar. G'ildiraklarning yo'l bilan ilashish kuchi. Ilashish kuchining zahirasi – harakatlanish xavfsizligining sharti.

6-mavzu. Aktiv va passiv xavfsizlik tizimlari.

Aktiv xavfsizlik tizimlarining turlari: g'ildiraklarni jilmay aylanishiga qarshi, sirpanib tormozlanishiga qarshi tizimlar, tormoz kuchlarini taqsimlash tizimi va boshqalar. Parktronik tizimi. Vazifasi va ulardan harakatlanishda foydalanish.

Passiv xavfsizlik tizimlari. Xavfsizlik kamarlari, xavfsizlik yostiqchalari, bolalarni ushlab turuvchi maxsus qurilmalar. Ularning vazifasi va yo'l-transport hodisasi yuz berganda afzalligi.

7-mavzu Avtotransport vositasini chorrahalarda, to'xtab turish joylarida va piyodalar o'tish joyida boshqarish.

Chorrahaga yaqinlashayotganda haydovchining xatti-harakatlari. Tartibga solinmagan va solingan chorrahalarda harakatlanish. Piyodalar to'plangan joylarda avtotransport vositasini boshqarish va ularni bosib ketish hodisalarini oldini olish.

Avtotransport vositasini to'xtab turish joylariga qo'yish bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari. To'xtab turish joylarida harakat xavfsizligi.

8-mavzu. Avtotransport vositasini transport oqimida boshqarish va qorong'ida ko'rish yetarlicha bo'lmagan sharoitlarda boshqarish.

Transport oqimida xavfsiz yon oraliqni tanlash. To'siqni aylanib o'tishda avtomobilni boshqarish. Umumfoydalanishdagi transport vositalarining to'xtash joylarini aylanib o'tish xususiyatlari. Quvib o'tishda avtomobilni boshqarish.

Qorong'ida harakat xavfsizligini ta'minlash. Qorong'ida va har xil ob-havo sharoitida avtomobilni boshqarish.

9-mavzu. Murakkab vaziyatlarda haydovchining harakatlari. Yo'l-transport hodisalari.

Harakatni boshlashda, tormozlashda va burilishda avtotransport vositasi turg'unligining yo'qolishi. Avtotransport vositasining harakatlanishi jarayonida ag'darilib ketish holatlari. Harakatlanish jarayonida avtotransport vositasi turg'unligini saqlash usullari.

Kuz, qish va bahor fasllarida yo'llardan foydalanish.

Avtotransport vositasi sirpanib ketganida, g'ildiraklar sirpanib tormozlanganida va surilib ketganida haydovchining harakatlari. Oldindan yoki orqadan to'qnashish xavfi tug'ilganida haydovchining harakatlari.

Avtotransport vositasining ishchi tormozi ishdan chiqqanida, shinasi yorilib ketganida haydovchining harakatlari. Avtotransport vositasida yong'in chiqqanida va suvga tushib ketganida haydovchining harakatlari.

Avtotransport vositasini chegaralangan joylarda, chorrahalarda va piyodalar o'tish joylarida, transport oqimida, ko'rinish chegaralangan sharoitda, xavfli burilishlarda, tik balandlik va tik nishabliklarda boshqarish. Avtotransport vositasini murakkab yo'l sharoitlari va yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida boshqarish.

Harakatlanish chegaralangan joylarda, burilish va qayrilib olishda avtotransport vositasining tezligi va harakat yo'nalishini tanlash. Shaharda, aholi punktlaridan tashqarida va avtomagistrallarda harakatlanish tezligini tanlash.

Quvib o'tish va ro'para transport vositalarining harakatlanishi. Temir yo'l kesishmalaridan o'tish.

Avtomobil yo'llarining xavfli uchastkalari: qatnov qismining torayishi, yo'lning yangi to'shalgan qoplamasi, bitum va shag'alli qoplamalar, surunkali nishablik va balandliklar, ko'priklar va temir yo'llarga yaqinlashish va boshqa xavfli uchastkalarda harakatlanish. Yo'llarning ta'mirlanayotgan uchastkalarida harakatlanishda ehtiyot choralari hamda ularda qo'llaniladigan to'siqlar, ogohlantiruvchi va yorug'lik ishoralari.

Tog'li yo'llarda, tumanda harakatlanishning o'ziga xos xususiyatlari.

Yo'l-transport hodisalari.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risida tushuncha. Yo'l-transport xodisalarining turlari. Yo'l-transport xodisasininng kelib chiqishi sabab va sharoitlari. Yo'l-transport hodisalarining statistikasi. Yil mavsumlari, haftaning kunlari, sutkaning vaqti, yo'lning toifalari, transport vositalarining turlari va boshqa omillar bo'yicha yo'l-transport hodisalarining taqsimlanishi.

**“Haydovchining huquqiy javobgarligi”
o‘quv fanidan o‘quv reja**

№	Mavzular	Soatlar	
		jami	nazariy
1.	Ma'muriy javobgarlik	4	4
2.	Jinoiy javobgarlik, Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari	2	2
3.	Fuqarolik javobgarligi. Avtomototransport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish	2	2
	Jami	8	8

**“Haydovchining huquqiy javobgarligi” o‘quv fanidan o‘quv
dasturi**

1- mavzu. Ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy javobgarlikning turlari (ogohlantirish, jarima, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish va h.k.). Ma'muriy jazoni qo'llaydigan idoralar, ularni ijro etish tartibi.

Transport vositalarini mast holda boshqarish huquqbuzarligining yuridik tahlili.

Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish bo'yicha ma'muriy javobgarlik holatlari.

2-mavzu. Jinoiy javobgarlik, Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari.

Jinoiy javobgarlik to'g'risida tushuncha.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganligi uchun jinoiy javobgarlik. Transport vositasini olib qochganligi uchun jinoiy javobgarlik. Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlik.

Jinoyatni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi vaziyatlar.

Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi va ahamiyati. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlar.

Tabiatni muhofaza qilishning maqsadi, shakllari va uslublari.

Tabiatni huquqiy muhofaza qilish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi idoralar tizimi, ularning vakolati, huquqi va vazifalari.

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni buzganligi uchun javobgarlik.

3-mavzu. Fuqarolik javobgarligi. Avtomototransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish.

Fuqarolik javobgarligi to'g'risida tushuncha. Fuqarolik javobgarligiga tortish asoslari. Zarar, ayb va qonunchilikka zid harakatlar to'g'risida tushunchalar. Yo'l-transport hodisasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Yetkazilgan moddiy zararni qoplash.

Yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlik to'g'risida tushuncha. Moddiy javobgarlikni vujudga kelish holatlari va uning turlari, cheklangan va to'liq moddiy javobgarlik. Ma'naviy ziyon to'g'risida tushuncha va uning vujudga kelish shartlari. Ma'naviy ziyonni qoplash.

Sug'urta qilish tartibi. Erkin va majburiy sug'urta. Sug'urta qilish bo'yicha nartnoma tuzish tartibi. Sug'urta badalini to'lashda imtiyoz va cheklovlar.

Sug'urta hodisasi. Sug'urta tovonini to'lashning asosi va tartibi.

II modul fanlari bo'yicha sinov. II modul fanlari bo'yicha o'quv tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan test savollari shaklidagi sinovni o'tkazish bo'yicha metodik materiallar asosida o'tkaziladi.

III modul fani

“Yo'l harakati qoidalarini” o'quv fanidan o'quv reja

№	Mavzular	Soatlar		
		jami	shu jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar	6	6	—
2.	Yo'l harakati ishtirokchilarining vazifalari. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari	2	2	—
3.	Yo'l belgilari	24	24	—
4.	Yo'l chiziqlari	6	6	—
	1-4 mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar	4	—	4
	O'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanib, 1-4 mavzular bo'yicha masalalar ishlash	4	—	4
5.	Sветофор va tartibga soluvchining ishoralari.	4	4	—
6.	Ogohlantiruvchi va avariya (xavf-xatar) ishoralari. Harakatlanishni boshlash, manyovr qilish.	2	2	—
7.	Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashuvi	2	2	—

8.	Harakatlanish tezligi. Quvib o'tish.	2	2	—
9.	To'xtash va to'xtab turish.	2	2	—
	5-9 mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar	4	—	4
	O'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanib, 5-9-mavzular bo'yicha masalalar ishlash	4	—	4
10.	Chorrahalarda harakatlanish	6	2	4
11.	Piyodalar o'tish joylari va yo'nalishli transport vositalarining bekatlari. Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish	4	4	—
	10-11 mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar	4	—	4
	O'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanib, 10-11 mavzular bo'yicha masalalar ishlash	4	—	4
12.	Avtomagistrallarda harakatlanish. Turar joy dahalarida harakatlanish. Tik balandlik va nishabliklarda harakatlanish	4	4	—
13.	Yo'nalishli transport vositalarining imtiyozlari. Tashqi yoritish asboblardan foydalanish	2	2	—
14.	Mexanik transport vositalarini shatakka olish. Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish.	2	2	—
15.	Odam va yuklarni tashish	4	4	—
16.	Transport vositalarining texnik holati va jihozlanishi	4	4	—
17.	Velosiped, moped va aravalarni harakatlanishiga, shuningdek, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimcha talablar	2	2	—
18.	Mansabdor shaxslarning va fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini yo'lga chiqarish, raqam va taniqlik belgilarni o'rnatish bo'yicha majburiyatlari.	2	2	—
	12-18 mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar	2	—	2
	O'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanib, 12-18-mavzular bo'yicha masalalar ishlash	4	—	4
	Jami:	110	76	34

“Yo‘l harakati qoidalari” o‘quv fanidan o‘quv dasturi

1-mavzu. Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo‘llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar.

Yo‘l harakati qoidalarining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi. Yo‘l harakati qoidalarining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni. Yo‘l harakati qoidalarining tarkibiy tuzilishi. Yo‘l harakati qoidalarda qo‘llaniladigan asosiy tushuncha va atamalarning ta‘rifi.

2-mavzu. Yo‘l harakati ishtirokchilarining vazifalari. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari.

Haydovchilarning umumiy majburiyatlari. Mexanik transport vositasi haydovchisining transport vositasini boshqarish vaqtida yonida olib yurishi shart bo‘lgan hujjatlar. Transport vositasidan foydalanishga imkon berish shart bo‘lgan holatlar. Transport vositasini harakatlanishini taqiqlovchi shartlar. Havfsizlik kamarlaridan foydalanish tartibi va mustasno bo‘lgan holatlar. Haydovchining yo‘lga chiqishdan oldin doimiy ravishda bajarishi lozim bo‘ladigan vazifalar. Haydovchi uchun taqiqlanadigan shartlar.

Miltillovchi chiroq mayoqchasini va maxsus tovush ishorasini berib kelayotgan transport vositasi haydovchisining huquq va majburiyatlari. Boshqa haydovchilarning maxsus transport vositalari harakati xavfsizligini ta‘minlashdagi majburiyatlari.

Yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganda, jarayonga daxldor haydovchilarning bajarishlari shart bo‘lgan majburiyatlari.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda yo‘lovchilar va piyodalarning majburiyatlari.

Yo‘lovchilar va piyodalarning yo‘l harakati qoidalarini bilishlari va unga amal qilishlari bo‘yicha belgilangan vazifalari. Piyodalar o‘tish joyilarida harakatlanish, qatnov qismini kesib o‘tishdagi turli muammoli vaziyatlar tahlili. Piyodalarning guruh bo‘lib harakatlanish tartibi. Yetarlicha ko‘rinmaslik sharoitida piyodalarning harakatlanishi.

Transport vositasiga yo‘lovchilarning chiqish va tushish tartibiga rioya qilish qoidalari. Xavfsizlik kamarini taqish zarur bo‘lmagan holatlar. Yo‘lovchilarga o‘rnatilgan taqiqlar.

Ko‘k yoki qizil yoxud ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar yoqilgan transport vositalarining haydovchilariga beriladigan imtiyozlar. Transport vositalarida zarg‘aldoq yoki sariq rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalardan foydalanish holatlari va shartlari.

3-mavzu. Yo‘l belgilari.

Yo‘llarda transport vositalari va piyodalarning xavsiz harakatlanishini tashkil etishda yo‘l belgilarining ahamiyati. Yo‘l belgilarining vazifasiga ko‘ra guruhlarga

bo'linishi. Yo'l belgilarining o'rnatilishiga qo'yiladigan umumiy talablar. Takroran, vaqtinchalik va mavsumiy o'rnatiladigan yo'l belgilari.

Ogohlantiruvchi belgilar. Ogohlantiruvchi belgilarning vazifasi. Ogohlantiruvchi belgilarning o'rnatilishiga qo'yiladigan talablar. Ogohlantiruvchi belgilarning vazifasiga ko'ra nomlanishi. Aholi punktlaridan tashqarida takror o'rnatiladigan ogohlantiruvchi belgilar. Tegishli ogohlantiruvchi belgi bilan belgilangan yo'lning xavfli qismiga yaqinlashayotgan haydovchining hatti-harakati.

Imtiyoz belgilari. Imtiyoz belgilarning vazifasi. Imtiyoz belgilarning o'rnatilishiga qo'yiladigan asosiy talablar. Imtiyoz yo'l belgilarining vazifasiga ko'ra nomlanishi. Haydovchilarning imtiyoz yo'l belgilarining talablari asosida chorxalalarda, yo'l kesishmalarda va yo'lning toraygan qismlarida harakatlanish tartibi.

Taqiqlovchi belgilar. Taqiqlovchi belgilarning vazifasi. Taqiqlovchi belgilarning o'rnatilishiga qo'yiladigan talablar. Taqiqlovchi belgilarning vazifasiga ko'ra nomlanishi. Taqiqlovchi belgilarning talablari taalluqli bo'lmagan holatlar. Belgilarning ta'sir oralig'ida yoki o'rnatilgan joyida haydovchiga qo'yiladigan ta'qiqlar. Yo'nalishli transport vositalariga taalluqli bo'lmagan taqiqlovchi belgilar

Buyuruvchi belgilar. Buyuruvchi belgilarning vazifasi. Buyuruvchi belgilarning vazifasiga ko'ra nomlanishi. Haydovchilarning buyuruvchi belgilar talabiga amal qilishlari. Istisno holatlari. Yo'nalishli transport vositalariga taalluqli bo'lmagan buyuruvchi belgilar

Axborot-ko'rsatgich belgilari. Axborot-ko'rsatgich yo'l belgilarining nomlanishi, vazifasi va o'rnatilishiga qo'yiladigan talablar. Haydovchilarning harakatlanish tartibini belgilovchi belgilar. Avtomagistrallarda o'rnatiladigan belgilar va ularning xususiyatlari. Piyodalar harakatini tartibga soluvchi belgilar.

Servis belgilari. Servis belgilarining nomlanishi, vazifasi va o'rnatilishi. Servis belgilarining boshqa belgilar bilan birga qo'llanilganda ularning mazmuni.

Qo'shimcha axborot belgilari. Qo'shimcha axborot belgilarining vazifasi. Har bir belgining nomlanishi va ma'lum bir belgi(lar) bilan o'rnatilishi.

Vaqtincha yo'l belgilari.

4-mavzu. Yo'l chiziqlari.

Yo'l harakatini tashkil etishda yo'l chiziqlarining ahamiyati. Yo'l chiziqlarining vazifasiga ko'ra turlari.

Yotiq yo'l chiziqlar. Yotiq yo'l chiziqlarning vazifasi. Har bir yotiq yo'l chiziqning qo'llanish shartlari. Yotiq yo'l chiziqlarning talablariga muvofiq haydovchining hatti-harakati. Sariq rangdagi yotiq yo'l chiziqlarning vazifasi, shuningdek sariq yo'l chiziqlarning talablariga ko'ra transport vositalari haydovchilarining harakatlari.

Tik chiziqlar. Tik yo'l chiziqlarning vazifasi. Tik yo'l chiziqlarning qo'llanish shartlari.

1-4 mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

O'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanib, 1-4 mavzular bo'yicha masalalar ishlash.

5-mavzu. Svetofor va tartibga soluvchining ishoralari.

Svetofor turlari va ularning ishoralari. Svetofor turlari va ishoralarining ahamiyati va ishoralarga muvofiq haydovchi va piyodalarning harakati. Qo'shimcha tarmoqli va harakat yo'nalishlarini belgilovchi svetoforlar. Reversiv svetoforlar. Tramvaylar va alohida ajratilgan tasmada harakatlanadigan yo'nalishli transport vositalarining harakatini tartibga soluvchi svetoforlar.

Tartibga soluvchining ishora va ko'rsatmalari. Tramvay, piyoda va relssiz transport vositalari uchun tartibga soluvchi ishoralarining ahamiyati. Svetofor yoki tartibga soluvchining taqiqlovchi ishoralarida to'xtash tartibi.

Svetoforning ishorasi, yo'l belgilari va chiziqlariga zid kelgan holatlarda haydovchi va piyodalarning harakati.

6-mavzu. Ogohlantiruvchi va avariya (xavf-xatar) ishoralari. Harakatlanishni boshlash, manyovr qilish.

Ogohlantiruvchi ishoralarining turlari va ularni qo'llash holatlari. Yorug'lik ishorasi va qo'l bilan beriladigan ogohlantiruvchi ishoralarni berish qoidalari. Quvib o'tishda beriladigan ogohlantiruvchi ishoralar. Tovush ishoralaridan foydalanish ruxsat etilgan holatlar. Ogohlantiruvchi ishoralarni berish qoidalariga rioya etmaslikning xavfli oqibatlari.

Harakatni boshlash, yo'nalishni o'zgartirish va manyovr qilishdan oldin haydovchining vazifalari. Chorrahada burilishni amalga oshirishning talablari. Chorrahadan tashqarida chapga burilish va qayrilib olish. Tezlashish va sekinlashish tasmalaridan foydalanish. Qayrilib olish va orqaga harakatlanish taqiqlangan joylar. Orqaga harakatlanishning qoidalari.

Manyovrni bajarish qoidalari buzilishining xavfli oqibatlari.

7-mavzu. Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashuvi

Avtomobil yo'llarida qatnov qismining harakatlanish tasmalar sonini aniqlash usullari. Tasmalar sonini, transport vositalarining turini va ularning tezligini hisobga olib, transport vositalarining qatnov qismida joylashishi.

Tramvay izlaridan harakatlanishning ruxsat etilgan holatlari. Reversiv harakatlanish tashkil etilgan yo'llarga burilish.

Oraliq masofa va yon oraliq masofani tanlash.

Transport vositalarining qarama-qarshi holatda harakatlanish tartibi.

Qatnov qismida transport vositalarining joylashish qoidalariga amal etmaslikning xavfli oqibatlari.

8-mavzu. Harakatlanish tezligi. Quvib o'tish. Harakatlanish tezligini tanlashga ta'sir etuvchi omillar. Aholi punktlarida transport vositalarining harakatlanishiga o'rnatilgan tezlik cheklovi. Turli toifadagi transport vositalari uchun aholi punktlaridan tashqarida harakatlanishga o'rnatilgan tezlik cheklovilari. Barcha yo'llarda, turli vaziyatlar uchun harakatlanish tezligining cheklovi. Harakatlanish tezligini tanlashdagi taqiqlar. Harakatlanishning xavfsiz tezligiga amal qilmaslikning og'ir oqibatlari.

Quvib o'tishni boshlashdan oldin va quvib o'tishda haydovchining vazifalari. Quvib o'tish taqiqlangan joylar. Sekin harakatlanadigan yoki katta hajmli transport vositalari haydovchilari uchun alohida talablar.

9-mavzu. To'xtash va to'xtab turish. To'xtash va to'xtab turish qoidalari. Transport vositalarini to'xtab turish joylariga qo'yish usullari. Aholi punktlaridan tashqarida uzoq muddatga to'xtab turish. To'xtash va to'xtab turish taqiqlangan joylar. To'xtash va to'xtab turish qoidalariga amal etmaslikning xavfli oqibatlari.

5-9 mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

O'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanib, 5-9 mavzular bo'yicha masalalar ishlash.

10-mavzu. Chorrahalarida harakatlanish.

Chorrahalarida harakatlanish tartib, qoidalari. Tramvay haydovchilarining imtiyozlari.

Tartibga solingan chorrahalar. Tartibga solingan chorrahalarida svetofor talablari asosida harakatlanish tartibi. Tartibga solingan chorrahalarida relsli transport vositalarining imtiyozlari.

Tartibga solinmagan chorrahalar. Teng ahamiyatga ega bo'lmagan yo'llar kesishgan chorrahalarida harakatlanish tartibi.

Asosiy yo'l yo'nalishini o'zgartirgan chorrahalaridan o'tish ketma-ketligi.

Relsli transport vositasining tartibga solinmagan teng ahamiyatli bo'lgan va teng ahamiyatli bo'lmagan chorrahalarida harakatlanish tartibi.

Chorraha turini aniqlashning ilojisi bo'lmagan hollarda (sutkaning qorong'i vaqti, yomg'ir, qor va boshqalar) va imtiyoz belgilari bo'lmaganda haydovchining harakati.

11-mavzu. Piyodalar o'tish joylari va yo'nalishli transport vositalarining bekatlari. Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish.

Piyodalar o'tish joylari va yo'nalishli transport vositalarining bekatlari. Tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyiga, yo'nalishli transport vositalarining bekatiga yoki "Bolalar guruhini tashish" taniqlik belgilari o'rnatilgan transport vositasiga yaqinlashib kelayotgan haydovchining vazifalari.

Temir yo‘l kesishmalari orqali harakatlanish. Temir yo‘l kesishmalari turlari. Kesishmalarda o‘rnatilgan zamonaviy texnik vositalarining ahamiyati va qo‘llanilish talablari. Temir yo‘l kesishmalarida transport vositalarining harakatlanishi davomida vujudga keluvchi xavf hatlarlar. Temir yo‘l kesishmalari oldida transport vositalarining to‘xtash va quvib o‘tish qoidalari. Temir yo‘l kesishmasida majburan to‘xtab qolgan transport vositasi haydovchisining vazifalari. Temir yo‘l kesishmasida harakatlanishda temir yo‘l distansiyasi boshlig‘i bilan kelishish talab qilinadigan shartli holatlar.

Piyodalar o‘tish joylari, yo‘nalishli transport vositalarining bekatlari va temir yo‘l kesishmalari orqali harakatlanish qoidalari buzilishining xavfli oqibatlar.

10-11 mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar.

O‘quv-metodik qo‘llanmalardan foydalanib, 10-11 mavzular bo‘yicha masalalar ishlash.

12-mavzu. Avtomagistrallarda harakatlanish. Turar joy dahalarida harakatlanish. Tik balandlik va nishabliklarda harakatlanish.

Avtomagistrallarda harakatlanishga kiritilgan ma‘lum bir taqiqlar. Avtomagistrallarning qatnov qismida va qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o‘ng tomonda majburan to‘xtagan haydovchilarning vazifalari.

Turar joy dahalari va ularni aniqlovchi holatlar. Turar joy dahalarida harakatlanishga qo‘yiladigan ma‘lum bir taqiqlar. Turar joy dahalari va hovli hududlaridan chiqish qoidalari.

Yo‘l belgilari bilan belgilangan qiyaliklarda, qarama-qarshi yo‘nalishlarda harakatlanishda transport vositalarining imtiyozi va majburiyati. Tik nishablikda tormozi ishlamay qolgan transport vositasi haydovchisining harakatlari. Pastlikka harakatlanishda taqiqlangan harakatlar.

13-mavzu. Yo‘nalishli transport vositalarining imtiyozlari. Tashqi yoritish asboblariidan foydalanish.

Chorahadan tashqarida tramvay izi bilan kesishuv.

Yo‘nalishli transport vositalari uchun alohida harakatlanish tasmasi mavjud bo‘lgan yo‘llarda harakatlanish tartibi. Avtobus va trolleybusni belgilangan bekatdan harakatini boshlashdan oldin haydovchining vazifalari.

Ko‘zi qamashgan haydovchining harakatlanish tartibi. Yaqinni yorituvchi chiroqlardan sutkaning yorug‘ vaqtida foydalanish holatlari. Tumanga qarshi chiroqlar, projektorlar, izlovchi chiroqlar, tumanga qarshi orqa chiroqlar, avtopoyezdning taniqlik belgilaridan foydalanish tartibi.

14-mavzu. Mexanik transport vositalarini shatakka olish. Transport vositalarini boshqarishni o‘rgatish.

Qattiq va egiluvchan ulagich hamda qisman ortish yo‘li bilan shatakka olish

shartlari va tartibi. Shatakka olish taqiqlanadigan holatlar. Shatakka olgan va shatakka olingan transport vositalarida yo'lovchilarni tashish. Mexanik transport vositalarini shatakka olish qoidalari buzilishining xavfli oqibatlari.

Boshqarishga ruxsat etadigan shartlar. Amaliy boshqaruv haydovchi-yo'riqchi, o'rganuvchi va o'quv transport vositasiga qo'yiladigan asosiy talablar.

15-mavzu. Odam va yuk tashish.

Yengil avtomobillarida odam tashishga qo'yiladigan talablar. Transport vositasida harakatlanishni boshlashdan oldin haydovchining vazifalari. Bolalar guruhini tashishda qo'yiladigan talablar. Odam tashishni taqiqlaydigan holatlar.

Avtotransport vositasida yuk tashishda yukni joylashtirish va mahkamlash qoidalari. Avtotransport vositasining o'lchamlaridan chiqib turadigan yuklarni tashishda qo'yiladigan asosiy talablari.

Odam va yuk tashish qoidalariga amal qilmaslikning xavfli oqibatlari.

16-mavzu. Transport vositalarining texnik holati va jihozlanishi.

Transport vositalarining umumiy tuzilishi. Transport vositasining boshqaruv tizimlari. Yorituvchi va ogohlantiruvchi chiroqlar. Oyna tozalagichlar. G'ildiraklar va shinalar. Dvigatel. Transport vositasining konstruksiyasi va tarkibiy qismlari. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlaydigan nosozliklar aniqlanganda haydovchining vazifalari. Transport vositalarining yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi nosozliklari mavjud bo'lganda foydalanishning xavfli oqibatlari.

17-mavzu. Velosiped, moped va aravalar harakatlanishiga, shuningdek, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimcha talablar.

Velosiped, moped va aravalarni boshqarish, shuningdek hayvonlarni haydab o'tishda qo'yiladigan umumiy talablar. Yo'llarda velosiped, moped, aravalarni boshqarish va hayvonlarni haydab yoki minib o'tish uchun ruxsat.

18-mavzu. Mansabdor shaxslarning va fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini yo'lga chiqarish, raqam va taniqlik belgilarni o'rnatish bo'yicha majburiyatlari.

Transport vositalarining texnik holati va jihozlarning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi. Mexanik transport vositalarida va tirkamalarda davlat raqam belgilarining o'rnatilishi. Transport vositalariga taniqlik belgilari o'rnatilishi. Mexanik transport vositalarini shatakka olishda yorug'lik qaytaradigan yuzali bayroqchalar yoki boshqa belgilarning o'rnatilishi. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar. Transport vositalarining texnik holatiga va ulardan foydalanishga javobgar bo'lgan mansabdor va boshqa shaxslarga qo'yiladigan taqiqlar. Yo'llar, temir yo'l kesishmalari va boshqa yo'l inshootlarining holatigam javobgar bo'lgan mansabdor va boshqa shaxslar. Yo'llarda ta'mirlash ishlarini bajarishga javobgar mansabdor va

boshqa shaxslar. Qonunchilik hujjatlarida koʻzda tutilgan hollarda tegishli mansabdor va boshqa shaxslar tomonidan YHXX bilan belgilangan tartibda kelishish shartlari. Zargʻaldoq yoki sariq rangli miltillovchi chiroq-mayoqchani oʻrnatilish tartibi. Koʻk yoki qizil yoxud koʻk va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalarning oʻrnatilishi. Transport vositalarining barcha rangdagi chiroq-mayoqcha va maxsus tovushli ishoralar bilan jihozlanish maʼlumotlarini roʻyxatdan oʻtkazish guvohnomasida koʻrsatilishi.

12-18 mavzular boʻyicha amaliy mashgʻulotlar.

Oʻquv-metodik qoʻllanmalardan foydalanib, 12-18 mavzular boʻyicha masalalar ishlash.

Mexanik transmissiya bilan jihozlangan avtotransport vositalarini boshqarishni o'rgatish bo'yicha vazifa va mashqlarning o'quv rejasi

Vazifalarning raqami	Vazifalarning nomi	Vazifalar bo'yicha umumiy soatlar	Mashqlarning raqamlari	Mashqlarga ajratilgan soatlar soni	O'tkazish joyi va soatlar soni		
					Avtotrenajyorda	Avtodromda	Yo'llarda
I	Boshlang'ich ta'lim	6	1	1	1*	–	–
			2	1	1*	–	–
			3	2	2*	–	–
			4	2	2*	–	–
II	Qisman cheklangan yo'llarda harakatlanish	12	5	2	–	2	–
			6	2	–	2	–
			7	2	–	2	–
			8	2	–	2	–
			9	2	–	2	–
			10	2	–	2	–
	Nazorat tekshiruvi	0,25	–	0,25	–	0,25	–
III	Harakatlanish jadalligi past bo'lgan yo'llarda avtotransport vositalarini boshqarish	8	11	2	–	–	2
			12	2	–	–	2
			13	2	–	–	2
			14	2	–	–	2
IV	Harakatlanish jadalligi yuqori bo'lgan yo'llarda avtotransport vositalarini boshqarish	8	15	2	–	–	2
			16	2	–	–	2
			17	2	–	–	2
			18	2	–	–	2
V	Avtotransport vositalarini sutkaning qorong'i vaqtlarida boshqarish	2	19	2	–	–	2
VI	Avtotransport vositalarini turli yo'l sharoitlarida boshqarish bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirish	32	20	32	–	–	32
	Sinov	0,25	–	0,25	–	–	0,25
	Imtihon YHXBB RIB yoki Imtihon markazida	0,5	–	0,5	–	–	0,5
	Jami:	69	–	69	6*	12,25	50,75

Izoh: * – avtoavtotrenajyorda yoki avtotransport vositasida o'tkaziladi.

“B” toifadagi avtotransport vositalarini boshqarishni o‘rgatish bo‘yicha vazifa va mashqlarning o‘quv dasturi

I Vazifa. 1-mashq (avtotrenajyorda yoki avtotransport vositasida)*. Haydovchining o‘rindiqda joylashishi. Boshqaruv hamda nazorat-o‘lchov asboblari bilan tanishish.

Boshqaruv hamda nazorat-o‘lchov asboblari bilan umumiy tanishish. Avtotransport vositasiga o‘tirish. Rul chambaragida qo‘llarning joylashishi. Avtotransport vositasidan tushish.

2-mashq (avtotrenajyorda yoki avtotransport vositasida)*. Dvigatelni ishga tushirishga tayyorgarlik va uni ishga tushirish, qizdirish, nazorat-o‘lchov asboblari kuzatish.

Dvigatel ishlamayotganida yoki yetaklovchi g‘ildiraklar ko‘tarilgan holatda uzatmalarni almashtirish sxemasi bilan tanishish, birinchi uzatmani qo‘shish, harakatni boshlash va uzatmalarni ketma-ket qo‘shish, sekinlanayotib past uzatmalarga o‘tish.

3-mashq (avtotrenajyorda yoki avtotransport vositasida)*. Avtotransport vositasini boshqarish uslublari.

Rulni boshqarish texnikasini o‘zlashtirish. Burilish va to‘xtash ishoralarini berishni o‘zlashtirish.

4-mashq (avtotrenajyorda yoki avtotransport vositasida)*. Harakatlanishni boshlashda, uzatmalarni yuqoriga va pastga almashtirganda, ohista va keskin tormozlashda, to‘xtashda boshqaruv organlaridan foydalanish (dvigatelni yurgizmasdan yoki yetakchi g‘ildiraklar ko‘tarilgan holatda).

II Vazifa. 5-mashq. Harakatni boshlash va to‘g‘ri yo‘nalishda yuqori va pastki uzatmalarni navbati bilan o‘zgartirib harakatlanish.

Dvigatelni ishga tushirish. Harakatni boshlash. Uzatmalarni yuqoriga va pastga o‘zgartirib, to‘g‘riga harakatlanish. Past uzatmaga o‘tish usullari (ketma-ket va ketma-ketlikka rioya qilmagan holda). Tormozlash usullari. Dvigatel yordamida tormozlash. Avtotransport vositasini to‘xtatish.

6-mashq. To‘g‘ri yo‘nalishda va burilishlarda turli uzatmalarda harakatlanish. Halqa yo‘nalish bo‘ylab harakatlanish. Tezlanish va “To‘xtash” chizig‘ining oldida to‘xtash. O‘ngga va chapga burilish, to‘siqlar orasidan o‘tish.

7-mashq. Belgilangan joyda to‘xtash va qayrilib olish.

Yo‘l yoqasida, belgilangan joyda, yo‘l belgisining oldida, trotuar yonida (parallel, 45 va 90 gradus burchak ostida) to‘xtash. To‘xtash uchun joy tanlash. Qisqa muddatli to‘xtash.

Tik nishablik va balandlikda to‘xtab turish. Qayrilib olish. Keskin to‘xtash.

8-mashq. Ilon izi yo‘li va izli taxta bo‘ylab harakatlanish; to‘g‘ri harakatlanishdan ilon izi yo‘li bo‘ylab harakatlanishga o‘tish; ilon izi bo‘ylab harakatlanishni o‘ng va chap burilishlardan boshlash; to‘g‘ri harakatlanishdan izli taxta

bo‘ylab harakatlanishga o‘tish; izli taxta bo‘ylab harakatlanishni o‘ng va chap burilishdan boshlash.

9-mashq. Tonnelda va aylanma yo‘lda harakatlanish; tonnelga to‘g‘ridan kirish va unda harakatlanish; tonnelga o‘ng va chap burilishlar orqali kirish; aylanma harakatlanishda soat strelkasi bo‘ylab harakatlanish; aylanma harakatlanishda soat strelkasiga qarshi harakatlanish.

Sakkizsimon (doira)da harakatlanish; “To‘xtash” chizig‘i oldida to‘xtash; sakkizsimon doirada harakatni soat strelkasi bo‘ylab va soat strelkasiga qarshi amalga oshirish; yo‘l belgilarining talablariga amal qilgan holda “To‘xtash” chizig‘ining oldida to‘xtash.

10-mashq. Cheklangan oraliqda avtotransport vositasini majmuaviy boshqarish.

Tonnelda, ilonizi yo‘lda, izli taxta bo‘ylab ketma-ketlikda harakatlanish, “To‘xtash” chizig‘i oldida to‘xtash.

Avtotransport vositasiga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish.

Nazorat tekshiruvi.

Avtodromda ta‘lim oluvchining olgan ko‘nikmalari tekshiriladi: harakatni boshlash, aylanma yo‘lda harakatlanish, belgilangan joyda va to‘xtash chizig‘i oldida to‘xtash; ilonizi yo‘lda to‘g‘riga harakatlanish. Chegaralangan hovliga kirish, orqaga harakatlanish va hovlidan oldinga harakatlanib chiqish; avtotransport vositasini chegaralangan to‘xtab turish joyiga qo‘yish, orqaga harakatlanib “boks”ga kirish. Tonnelga oldinga va orqaga harakatlanib to‘g‘ridan hamda o‘ng va chap burilishlar orqali kirish. Balandlikda harakatni boshlash. Tezlanish va to‘xtash-chizig‘i oldida to‘xtash.

III Vazifa. 11-mashq. Yo‘l (aholi punkti)ga chiqish. Transport oqimida harakatlanish. To‘xtash va harakatni boshlash. Ko‘rinish cheklangan burilishlarda harakatlanish. Balandlik va nishabliklarda to‘xtash va harakatni boshlash. Belgilangan yo‘nalishli transport vositalarining bekatlari va piyodalar o‘tish joylarida harakatlanish.

12-mashq. Avtotransport vositasini to‘xtab turish joyiga qo‘yish. Yo‘lning tor qismlarida ro‘para harakatlanish. To‘xtab turgan transport vositasini chetlab o‘tish. Ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgich va estakadalarda harakatlanish. Temir yo‘l kesishmalaridan o‘tish.

13-mashq. Chorrahalaridan o‘tish. Chorrahani baholash (ko‘rinish darajasi, bo‘laklar soni, transport vositalarining mavjudligi va h.k.). Svetofoarning (tartibga soluvchi) ishoralariga amal qilish. Harakatlanish yo‘nalishini tanlash.

14-mashq. Teng ahamiyatli bo‘lmagan va teng ahamiyatli yo‘llar kesishgan chorrahalarda to‘g‘riga harakatlanish, burilish va qayrilib olish. Tezlikni tanlash. Nazorat-o‘lchov asboblarini nazorat qilish.

IV Vazifa. 15-mashq. Yo‘l (aholi punkti)ga chiqish. Avtotransport vositasining yon tevaragida xavfsiz makonni shakllantirish. Transport oqimida harakatlanish. To‘xtash va harakatni boshlash. Ko‘rinish cheklangan burilishlarda harakatlanish.

Balandlik va nishabliklarda to'xtash va harakatni boshlash. Yo'nalishli transport vositalarining bekatlari va piyodalar o'tish joylarida harakatlanish.

16-mashq. Avtotransport vositasini to'xtab turish joyiga qo'yish. Yo'lning tor qismlarida ro'para harakatlanish. To'xtab turgan transport vositasini chetlab o'tish. Ko'priklarda, yo'l o'tkazgich va estakadalarda harakatlanish. Temir yo'l kesishmalaridan o'tish.

17-mashq. Chorrahalaridan o'tish. Yaqinlashib kelayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofani aniqlash. Yaqinlashib kelayotgan transport vositasining tezligini aniqlash. Qayta tizilishning maqsadi va zaruriyatini baholash. Svetoforming (tartibga soluvchi) ishoralariga amal qilish. Harakatlanish yo'nalishini tanlash.

18-mashq. Teng ahamiyatli bo'lmagan va teng ahamiyatli yo'llar kesishgan chorrahalarda to'g'riga harakatlanish, burilish va qayrilib olish. Tezlikni tanlash. Nazorat-o'lchov asboblari nazorat qilish.

V Vazifa. 19-mashq. Avtotransport vositasini sutkaning qorong'i vaqtlarida boshqarish.

Sun'iy yoritilgan va yoritilmagan yo'llarda tashqi yorug'lik asboblariidan foydalanib, avtotransport vositasini boshqarish. Sutkaning qorong'i vaqtida (yetarlicha ko'rinmaslik sharoiti) avtotransport vositasini bir tomonlama va ikki tomonlama harakat tashkil etilgan yo'llarda boshqarish.

Tartibga solingan va tartibga solinmagan chorrahalaridan to'g'ri yo'nalishda, o'ngga va chapga burilib o'tish.

Avtotransport vositasini trotuar yonida va yo'l yoqasida to'xtab turishi uchun joyni tanlash va uni qo'yish.

VI Vazifa. 20-mashq. Avtotransport vositasini turli yo'l sharoitlarida boshqarish bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirish.

Ushbu mashq avtotransport vositasini boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni takomillashtirish va boshqarishdagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida har bir ta'lim oluvchi bilan alohida tuzilgan reja asosida o'tkaziladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi 2013-yil 10-apreldagi O‘RQ–348-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Transport to‘g‘risida”gi 2021-yil 9-avgustdagi O‘RQ–706-son qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ–730-son qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3127-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–190-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi “Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–298-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi “2022-2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–316-son qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi “Avtomototransport vositalari va shahar elektr transport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash hamda avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o‘tkazish bo‘yicha nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 408-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-dekabrdagi “Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 975-son qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 272-son qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi “Yo‘l harakati xavfsizligi sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 271-son qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi “Avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomalarini olish uchun imtihonlarni o‘tkazish sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 272-son qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-sentabrdagi “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta

- qilish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 609-son qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-son qarori.
 15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 353-son qarori.
 16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 377-son qarori.
 17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-iyuldagi "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni imtihondan o'tkazish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 393-son qarori.

Maxsus adabiyotlar

1. Маматкулов Ғ., Зокиров Н.Т., Шоназаров А.А. Йўл ҳаракати қоидаларига шарҳлар. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 268 б.
2. Азизов Қ.Ҳ. Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари. – Т., 2009. – 205 б.
3. Азизов К.Х. Основы организации безопасности движения. – Т.: Фан ва технология, 2012. – 272 с.
4. Диметов Р.Н. ва бошқ. Мураккаб йўл шароитларида ҳаракатланиш усуллари: Ўқув қўлланма. – Т., 2005.
5. Muhitdinov A., Qulmuhammedov J. Transport vositalarining tizilishi. Устройство транспортных средств. – Т.: Таълим нашриёти, 2019. – 176 б.
6. Файзуллаев Э. ва бошқ. Транспорт воситаларининг тузилиши ва назарияси. – Т., 2005.
7. Миртурсунов О.Р. ва бошқ. Биринчи тиббий ёрдам. Тошкент, 2014 й.
8. Ҳасанхон Яхё Абдулмажид. Йўл ҳаракати фикҳи. – Т.: 2021. – 304 б.

Internet saytlari

1. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. <http://txt.uz> – Elektron kutubxona.
3. <http://www.ziyonet.uz> – Axborot ta'lim tarmog'i.

“ISHLAB CHIQILGAN”:

O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi boshlig‘i


R.A. Xatamov

2022-y. “ ”- _____

“KELISHILGAN”:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Kasbiy
tayyorgarlik boshqarmasi boshlig‘i


U.K. Nurullayev


2022-y. “ ”- _____

O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi boshlig‘ining
o‘rinbosari


R.O. Nigmatov

2022-y. “ ”- _____

O‘zbekiston Respublikasi Oliy
va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Malaka
oshirish va qayta tayyorlashni tashkil
etish boshqarmasi boshlig‘i


F.T. Esanboboyev

2022-y. “ ”- _____

O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi Avtomobil tayyorgarligi
kafedrasi boshlig‘i


S.A. Kalauov

2022-y. “ ”- _____

O‘zbekiston Respublikasi Transport
vazirligi Ta‘lim muassasalari faoliyatini
muvofiglashtirish sektori boshlig‘i


L.O. Ulmasova

2022-y. “ ”- _____